XALQ DEPUTATLARI PAXTAKOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 6-mart VII-6-43-3-52-K/25 Paxtakor tumani

Paxtakor tumani mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi bir-birini takrorlovchi ko‘cha nomlarini o‘zgartirish hamda nomsiz ko‘chalarga yangi nom berish to‘g‘risida

Tumandagi bir-birini takrorlovchi ko‘chalarni qayta nomlash, nomsiz ko‘chalarga yangi nom berish yuzasidan tushgan takliflar ko‘rib chiqildi va mazkur takliflar atroflicha muhokama qilinib, ko‘chalarni qayta nomlash hamda tumandagi nomsiz ko‘chalarga berilgan yangi nomlarni tasdiqlash to‘g‘risida Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi tomonidan taqdim etilgan xulosalar hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 295-sonli qarori hamda tuman komissiyasi takliflarini inobatga olib, xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Paxtakor tumani hududidagi bir-birini takrorlovchi ko‘cha nomlarini o‘zgartirish hamda nomsiz ko‘chalarga yangi nom berish bo‘yicha Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Ekspert komissiya deb ataladi) xulosalari ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ekspert komissiyaning Paxtakor tuman hududidagi mavjud qonunga zid nomlarni qayta nomlash hamda nomsiz ko‘chalarga nom berish bo‘yicha takliflari ma’qullansin.

3. Paxtakor tumanida yangi nom berilgan ko‘chalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Paxtakor tumanida yangi nom berilgan ko‘chalar xaritasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman statistika bo‘limi (A.Murunov), Davlat kadastrlari palatasi Jizzax viloyati boshqarmasining Paxtakor tumani filiali (B.Asatullayev), tuman arxitektura va qurilish bo‘limi (B.Ne’matov) hamda tegishli mutasaddi va davlat organlariga amaldagi

tartibda nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

6. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Y.Akaboyev) yangi nom berilgan va nomlari o‘zgartirilgan hududlarda aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

7. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha tuman komissiyasiga yangi nom berilgan va nomi o‘zgartirilgan ko‘chalarga ularning nomlari yozilgan metall ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalar bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

8. Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarini moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

9. Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (D.Toshpo‘latov), mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari hamda xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlariga hududlardagi yangi nom berilgan ko‘chalarga chiqqan holda aholi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borish tavsiya etilsin.

10. Tuman hokimligi axborot xizmati (R.Qurbonov) va “Paxtakor hayoti” gazetasi (M.To‘xtasheva)larga ushbu qarorning ijtimoiy tarmoqda hamda gazeta sahifasida yoritilishi tavsiya etilsin.

11. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish” masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Jumaboyev)ga va qaror ijrosini ta’minlash geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi (A.Shukurov) zimmasiga yuklatilsin.

11. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



ASHUROV ASILBEK RAXMONOVICH


Xalq deputatlari Paxtakor tumani Kengashining
2025-yil 6-martdagi
VII-6-43-3-52-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Paxtakor tumani mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi bir-birini takrorlovchi ko‘cha nomlarini o‘zgartirish hamda nomsiz ko‘chalarga yangi nom berish

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning bog‘lanishi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan taklif etilayotgan nom	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining xulosasi	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Ko‘cha	Mingchinor MFY	Nomsiz	Xo‘jand	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Ko‘cha	Olmazor MFY	Nomsiz	Xorazm	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Tor ko‘cha	Olmazor MFY	Nomsiz	Xorazm	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Berk ko‘cha	Chamanzor MFY	Nomsiz	Nurliquyosh	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Ko‘cha	G‘alaba MFY	Nomsiz	Ziynat	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Ko‘cha	Paxtakor MFY	Nuriston	Sentob	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Ko‘cha	Bog‘ishamol MFY	Madadkor	Olmaliq	Xaritada geografik obyektning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

Xalq deputatlari Paxtakor tumani
Kengashining
2025-yil 6-martdagi
VII-6-43-3-52-K/25 -son qaroriga
2-ilova



Jizzax viloyati Paxtakor tuman
"Olmazor" mahallasi Olmali aholi punkti





Shartli belgilar

- Ko'cha
- Yer
- Bino
- Mahalla chegarasi


N
W
E
S
Jizzax viloyati Paxtakor tuman
"Chamanzor" mahallasi
Shartli belgilar
Ko'cha
Yer
Bino
Mahalla chegarasi


N
W
E
S
Jizzax viloyati Paxtakor tuman
"G'alaba" mahallasi
Shartli belgilar
Ko'cha
Yer
Bino
Mahalla chegarasi


N
W
E
S
Jizzax viloyati Paxtakor tuman
"Bogishamol" mahallasi
Shartli belgilar
Ko'cha
Yer
Bino
Mahalla chegarasi


N
W
E
S
Jizzax viloyati Paxtakor tuman
"Paxtakor" mahallasi
Shartli belgilar
Ko'cha
Yer
Bino
Mahalla chegarasi